

It is difficult to give many examples of morphological analysis, because the noun is in its place, the adjective is in its place, and the work is difficult to analyze grammatically, but examples have been given. For example, “**I have expressed my wish I know to consider my tree wealth not but the services**”, this phrase is translated as surprise of the second day in Uzbek language, but it causes confusion in the translation. **Beautiful woman with black eyebrows and eyes a coored nose she had no angel and cold face.** It will be appropriate if we translate it as.

Navkar - this word has a common meaning when translated into English. This **novice** was cited in the translation.

Conclusion. In this article, the problems encountered in turning into the translation language using lexicological, morphological, syntactic transformations in the sentences given in the work selected as the object of translation are considered.

References

1. Odil Yoqubov. Ulugbek Xazinasi. Nodirabegim nashriyoti. Toshkent - 2019, 137-bet.
2. Solijonov Juraali Kamoljonovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the Harry Potter books from English into Uzbek. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, Vol 39 (No 4.), 221-229. doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>
3. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK Roulingning fantastik asarlaridagi antroponimlarning lingvo-perspektiv muammolari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
4. Kamoljonovich, S. J. (2022). Badiiy tarjima uchun tarjima usullari tahlili (Ian Tuhoviskiy asarlari misolida). Ta'limfidoyilari, 18(5), 32-37.

SINXRON TARJIMONNING NUTQIY MAHORATI

Kamola YULDAShEVA

*Toshkent to'qimachilik va
yengil sanoat instituti doktoranti*

Annotatsiya. *Sinxron tarjimon bilimdan tashqari nutqiy mahorati, tarjima fantaziyasi hamda tezkorlikni o'zida mujassamlashtirishi talab etiladi. Mazkur tezisda yuqoridagi sifatlar muhokama etiladi.*

Kalit soʻzlar: *Nutq mahorati, tarjimon, sinxron tarjima, metod.*

Kirish. Amalda sinxron tarjimaning quyidagi uch varianti kuzatiladi:

- 1) eshitib sinxron tarjima qilish;
- 2) qogʻozga qarab sinxron tarjima qilish;
- 3) oldindan tarjima qilingan matnni sinxron oʻqish.

Sinxron tarjima soʻzlovchi (maʼruzachi, chiqish qiluvchi, bayonot beruvchi, savollarga javob beruvchi) nutqi bilan bir vaqtda amalga oshiriladi va ketma-ket tarjimadan farqli oʻlaroq, tarjima uchun alohida vaqt ajratilishi talab etilmaydi va tarjima chogʻida soʻzlovchi nutqini toʻxtatishga hojat boʻlmaydi. Bu esa sinxron tarjimaning quyidagi afzalliklarini belgilab beradi:

1) Sinxron tarjimada soʻzlovchining nutqi, tinglovchining tinglashi yoki ular ishtirokidagi tadbirning oʻtkazilishi uchun sarflanadigan vaqtning ikki barobarga qisqarishiga olib keladi.

2) Sinxron tarjimada soʻzlovchining nutqida uzilish va toʻxtalish yuz bermasligi sababli, soʻzlovchi oʻz nutqining tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini, yaʼni ularning reaksiyasi va kayfiyatini kuzatish imkoniga ega boʻladi.

3) Sinxron tarjimada tinglovchi ham uzluksiz tarjima qilinayotgan nutqni tinglash jarayonida soʻzlovchining kayfiyatini kuzatish imkoniga ega boʻladi.

Asosiy qism. Sinxron tarjima soʻzlovchining nutqi yoki u ishtirokida oʻtgan tadbirning ommaviy axborot vositalari, xususan elektron ommaviy axborot vositalari tomonidan tezkor tarzda, jumladan, toʻgʻridan-toʻgʻri jonli efirda yoritilishini taʼminlaydi. Yaʼni soʻzlovchining nutqi yoki u ishtirokida oʻtgan tadbirdan nafaqat u yerda ishtirok etayotgan tinglovchilar, balki elektron ommaviy axborot vositalari vositasida turli mamlakatlar jamoatchiligi ham oʻsha paytning oʻzida xabardor boʻlishadi.

Sinxron tarjimada nutqni bir paytda tinglash va tarjima qilish jarayonida yuz bergan koʻproq toʻxtalish, yaʼni nisbatan koʻproq vaqt davomida tinglash yoki tarjima qilishdan toʻxtash butun bir jumla, bir yoki bir necha gapning tarjimon tomonidan tarjima qilinmasdan qolishiga yoki kechikib tarjima qilinishiga, bu esa oʻz navbatida nutqning

boshqa bir qismining tarjimon tomonidan qabul qilinmasdan qolishiga sabab bo'ladi. Sinxron tarjimada tarjima qilinayotgan nutqning har bir bo'lagi iloji boricha o'z o'rnida tarjima qilib borilishi lozim.

Davlat va jamiyat hayotining ma'lum tor sohasiga oid bo'lgan nutqni tarjima qilishda tarjimon tinglovchilarning tushunish darajasini e'tiborga olishi, jumladan ayrim izohlar berishi lozim bo'ladi. Ammo sinxron tarjima chog'ida buning imkoniyati o'ta cheklangan bo'ladi.

Nutq mazmuni bilan bog'liq cheklanishlar: Sinxron tarjimada umuman so'zlanayotgan nutq to'g'risida, xususan nutqning hali so'zlanmagan davomi to'g'risida ma'lumot yoki tasavurning bo'lmasligi nutqda bildirilayotgan va uning davomidagi qismlar bilan bog'liq bo'lgan yoki nutqning davomida izohlanadigan qismlarini tarjima qilishda qiyinchilik tug'diradi.

Aytish mumkinki, tarjimaning boshqa turlarida bunday so'zlarning asl ma'nosini aniqlashning imkoni bo'ladi. Ammo sinxron tarjimada buning iloji yo'q. Buning uchun tarjimon nutqda aytilayotgan o'sha so'z yoki ma'no to'g'risida oldindan ma'lumotga ega bo'lgan bo'lishi kerak bo'ladi.

Tarjimaning eng tezkor, eng qiyin va eng mas'uliyatli turi bo'lgan sinxron tarjima bilan shug'ullanish tarjimondan boshqa turdagi, jumladan yozma tarjimalarni amalga oshiruvchi tarjimonlar oldiga qo'yiladigan umumiy talablardan tashqari, quyidagi narsalarni talab qiladi:

- 1) Har ikkala tilni tarjima qilinayotgan nutqni lug'atdan foydalanmasdan tarjima qiladigan darajada yaxshi bilish va har qanday ma'noni har ikkala tilda erkin ifoda eta olish;
- 2) Har ikkala tilda o'ta tez, ravon va aniq so'zlay olish;
- 3) Kuchli eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lish;
- 4) Diqqat va fikrni jamlay olish qobiliyatiga ega bo'lish;
- 5) O'ta tez reaksiyaga ega bo'lish;
- 6) Aqliy va jismoniy chidamlilikka ega bo'lish;
- 7) Bir paytning o'zida tinglash va so'zlash qobiliyatiga ega bo'lish.

Shuning bilan birgalikda, sinxron tarjimon nafaqat ikki tilni yaxshi bilishi, balki ikki til tegishli bo'lgan mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotining, ilm-fanning barcha sohalari, shuningdek ushbu mamlakatlar xalqlari madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi va mentaliteti to'g'risida iloji boricha ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi, ushbu mamlakatlar hayotida yuz berayotgan voqealar va jarayonlardan xabardor bo'lib turishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Miram, G. E. Kasb: tarjimon / G. E. Miram. - Kiev: Nika-markaz, 2019. - Kirish (Tarjimon yaxshi kasbmi). - 160 s.
2. Ilyuxin V. M. Sinxron tarjimada strategiyalar (inglizcha-ruscha va ruscha-inglizcha tarjimaning kombinatsiyasi asosida): filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya: 02.10.20 / M., 2015. - 206 varaq.
3. Gurin, I.V. Rus tilidan ingliz tiliga sinxron tarjima qilishda nutqni siqish texnikasi [Elektron resurs].
4. Shvaytser, A.D. Tarjima nazariyasi. Holati, muammolari, jihatlari. - M.: Librocom, 2019 yil.
5. www.ziynet.uz

MEDIALINGVISTIKA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING YANGI TARMOG'I SIFATIDA TAHLILI: TURLI YONDASHUVLAR

Buviniso MASHRABOVA

*Andijon davlat pedagogika instituti
I-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi davr zamonaviy tilshunosligiga yangi tarmoq sifatida kirib kelgan medialingvistika atamasiga izoh beriladi, ingliz, rus va o'zbek tilshunos olimlarining bu yangi tarmoq xususida berilgan turli yondashuvlari va tahlillari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: lingvistika, media, medialingvistika, ommaviy axborot vositalari (OAV), ommaviy kommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari - gazeta, jurnal matbuoti, radio, televidenie, internet.

Lingvistika keng qamrovli fan hisoblanadi va u o'z navbatida sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, pragmalingvistika kabi boshqa